



THE DEVELOPMENT PROCESSES OF ECOTOURISM IN SHAHRISABZ AND ITS ROLE IN NATIONAL DEVELOPMENT

Behruz Bobojonov

Lecturer at Shahrissabz State Pedagogical Institute

Zarina Arolova

Student at Shahrissabz State Institute

bobojonovbehruz00@gmail.com

Shahrissabz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ecotourism, white water and read water gorge, natural resources, Shahrissabz, infrastructure, Hisorak Reservoir.

Received: 08.10.25

Accepted: 09.10.25

Published: 10.10.25

Abstract: This article provides information about the origin and development stages of ecotourism in Shahrissabz. It also briefly discusses the impact of ecotourism on the state budget. It was emphasized that ecotourism is the most effective tool for implementing economic and social production in a developed country, as well as the need to implement it in accordance with the program.

SHAHRISABZDA EKOTURIZM RIVOJLANISH JARAYONLARI VA MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RN

Behruz Bobojonov

Shahrissabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Zarina Arolova

Shahrissabz davlat instituti talabasi

bobojonovbehruz00@gmail.com

Shahrissabz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ekoturizm, Oq suv va Qizilsuv darasi, tabiiy resurslar, Shahrissabz, infratuzilmalar, Hisorak suv ombori.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shahrissabzda ekoturizmning paydo bo'lish tarixi, va rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot berilgan. Ekoturizmning davlatimiz byudjetiga ta'siri haqida qisman ma'lumot berib o'tilgan. Ekoturizmning rivojlanishi mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni amalga oshirish uchun eng samarali vosita

ekanligi hamda, barqaror rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq tarzda amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlangan.

ПРОЦЕССЫ РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА В ШАХРИСАБЗЕ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ СТРАНЫ

Бехруз Бобожонов

Преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического института

Зарина Аролова

Студентка Шахрисабзского государственного института

bobojonovbehruz00@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Экотуризм, ушелъя Аксу и Кызылсув, природные ресурсы, Шахрисабз, инфраструктура, Гисаракское водохранилище.

Аннотация: В статье представлена информация об истории и этапах развития экотуризма в Шахрисабзе. Частично представлена информация о влиянии экотуризма на государственный бюджет. Было подчеркнуто что экотуризм является наиболее эффективным инструментом реализации экономического и социального производства в развитой стране и что его следует реализовывать в соответствии с программой.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Qashqadaryo viloyatining qadimiy va betakror shaharlaridan biri hisoblangan. Shahrisabzda turizm, ayniqsa ekologik turizm salohiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu jarayon mamlakatimiz Prezidentining bevosita tashabbuslari, jumladan, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan ustuvor vazifalar asosida amalga oshirilmogda. Shahrisabz tarixiy merosi, noyob tabiiy landshaftlari, toza ekologik muhiti va tog'li hududlardagi madaniy obyektlari bilan mahalliy va xorijiy sayyohlar e'tiborini tortib kelmoqda. Aynan shu jihatlar ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay asos yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, turistlarni noyob tarixiy-madaniy va me'moriy meros obyektlari bilan keng tanishtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, manzilli turizm xizmatlarini ko'rsatish uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirish, viloyatni turli madaniy-kungilochar tadbirlar o'tkazish markaziga aylantirish orqali hududga turistlar oqimini yanada ko'paytirish hamda ularning hududda bo'lish davomiyligini uzaytirish, shuningdek, turizm sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi mahalliy aholi sonini ko'paytirish maqsadidagi hujjatlar mavjud bo'lgan arxeologik, etnografik,

tarix, me'morchilik va madaniy sohalarda yangi ma'lumotlar to'plash hamda mukammallashtirish talab qilinmoqda.

Shunigdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Bu vohada qadimda Naxshab, Nasaf, Kesh degani buyuk shaharlar bo'lgani, shunday taxalluslar bilan diniy va dunyoviy ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalarimiz, aziz-avliyolarimiz haqida soatlab gapirish mumkin" [1] degan edilar. Shahrisabz shahrining 2700 yillik yubileyini YUNESKO hamkorligida keng nishonlanganini guvohi bo'lganman. Bugungi kunlarda shahrimiz Yevropaning Rim, Parij, Afina, Afrikaning Qohira, Yaqin Sharq mamlakatlari Vavilon, Quddus, Markaziy Osiyodagi Samarqand, Qarshi, Marv, Termiz va Toshkent kabi tarixiy shaharlar bilan bir qatorda turmoqda.

Shahrisabz shahrining tarixiy hududi YUNESKOning "Umuminsoniyat merosi" kitobi ro'yhatiga kiritilishi va xalqaro e'tirof etilishi katta mas'uliyat yuklaydi. Bizga ma'lumki har bir viloyat, tuman, shaharlarning o'ziga xos turizmi rivojlangan. Shahrisabz qadimdan tarixga boy shaharlardan biri. Xorijlik sayyohlarning tashrif buyurishi Shahrisabzdagi turizmning rivojlanishidan dalolat beradi. Xususan, ekoturizm mamlakatning iqtisodiy o'sishi uchun asosiy vazifani bajaradi. Alohida ta'kidlash joizki, ekoturizm sayyohlarni o'ziga jalb qiluvchi eng maqbul yo'nalishdir.

Ekoturizm – shaxslarning dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashish, ma'rifiy – ma'naviy ishlarni amalga oshirish maqsadida hamda ekologik vazifalarni bajarish uchun doimiy yashash joylaridan chiqib, tabiatga qiladigan sayohatlari, atrof – muhitni o'rganish uni muhofaza qilish, tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lish va shuning bilan bir qatorda maroqli hordiq chiqarish imkoniyatini beradi.

Shahrisabz tumanida ekoturizm rivojlanib bormoqda. Masalan, Shahrisabzdagi Oqsuv daryosi, Hisorak suv omborida qurilgan daryo hisoblanadi. Bu suv ombori Qashqadaryoning irmog'i bo'lgan Oqsuv daryosi o'zanida barpo etilgan. U Shahrisabz tumanining Miroqi shaharchasidan 1,5 km uzoqlikda joylashgan. Hisorak suv ombori 1983-1988-yillarda Oqsuv daryosi o'zanida qurilgan. Shahrisabz tumani Miroqi shaharchasidan 1,5 km uzoqlikda joylashgan. Uni qurishdan maqsad Shahrisabz tumani, Chiroqchi, Kitob tumani va Yakkabog' tumanining unumdor yerlaridan foydalanib, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish bo'lgan. Foydalanishga topshirilgan yili sug'orish uchun belgilangan maydon 46,8 ming km edi. Suv ombori atrofida dam olish hududi tashkil etilgan bo'lib har yili ko'p sayyohlar tashrif buyurishadi. Suv ombori umumiy hajmi 170 mln m³ bo'lib, foydalaniladigan qismi 161,6 mln m³ tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da " ekologik turizm O'zbekistonda rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoq hisoblanadi. Ekologik turizm katta iqtisodiy daromad keltirishga qodir" [2]

deya ta'kidlanadi. Ushbu asarda ekoturizm mamlakatning iqtisodiyotiga qay darajada foyda keltirishi aytib o'tilgan. A. Axmedov, A. Hamidov "Ekologiya asoslari va tabiatini muhofaza qilish" kitobida Shahrisabzning ekologik holati, tabiiy resurslari haqida batafsil ma'lumot berilgan. S. Azamovning "Maktab o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati" kitobida ekoturizmning ijtimoiy va tarbiyaviy jihatlari ko'rib chiqilgan. Ekologiya muhofazasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi va ekoturizmning rivojlanishi uchun ekologik bilim berish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligi ta'kidlangan [3]. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekoturizm nafaqat iqtisodiy, balki ta'limiy va madaniy ahamiyatga ham ega.

Tadqiqot metodologiyasi.

Shahrisabz tumanidagi asosiy ekoturistik hududlar — G'elon qishlog'i va Hisorak suv ombori asosida olib borildi. G'elon qishlog'i dengiz sathidan 1800–2000 metr balandlikda joylashgan bo'lib, o'zining toza havosi, tabiiy flora va faunasi, tog' manzaralari bilan alohida e'tiborga loyiq. Hisorak esa 170 million kub metr sig'imdagi suv ombori bo'lib, suv sporti, baliq ovlash va ekoturistik yurishlar uchun qulay sharoitlar yaratadi. Shahrisabz tumaniga qarashli Hisor tog' tizmasidagi baland, viqorli tog'lar bag'rida G'elon qishlog'i joylashgan. Qariyb 2000 yillik tarixga ega G'elon qishlog'i Shahrisabz tumani markazidan 100 km olis masofaga ega. G'elon qishlog'i dengiz sathidan 1800-2000 m balandlikda, Hisorak suv omboridan ham yuqoriroqda joylashgan [4]. Shahrisabz tuman hududi Qashqadaryo viloyatining shimoliy-sharqiy qismida, Hisor tog'larining etaklarida joylashgan. Tog'lardan oqib tushadigan Oqsuv, Qashqadaryo, Tanxozdaryo, Qizildaryo, Tamshush, Miroqi daryolari jarliklar hosil qilgan. Miroqi tog' etaklaridan qora marmar qazib olinadi. Tabiati juda ham go'zal ko'rinishga ega.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizm nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ekologik madaniyatni shakllantirish va aholini bandligini ta'minlash vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda. Shahrisabzda ekoturizm obyektlarining mavjudligi, tabiiy resurslarning boyligi, tog'li hududlarning kengligi bu sohaga investitsiya jalb qilish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish mamlakatimizning mavjud resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga, ekologik turizmni rivojlantirish, qulay sharoitlar yaratish va unga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish orqali tog'li va chekka hududlar hamda cho'l mintaqasidagi aholini ish bilan ta'minlash, ularning daromad manbaini kengaytirish maqsad qilib qo'yilgan. Ekoturizmni rivojlantirish uchun avvalo, davlat qo'riqxonalari buffer zonalari, milliy tabiat bog'lari, pitomiklar, o'rmon va o'rmon-ov xo'jaliklari, tog'li va cho'l hududlari hamda suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonlaridan tashkil qilinishi mumkin bo'lgan faoliyat turlarini

kengaytirish lozim; “Tabiatga sayohat” ekoturizmni rivojlantirish buyicha dastur ishlab chiqish lozim; ekohududlarda yo’l-transport, kommunal va turizm infratuzilmalarini qurish xarajatlarini xorijiy investorlar mablag’lari hisobidan qoplash; innovatsion va zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish; ekohududdagi turistik so’qmoqlar va yo’l ko’rsatkichlarining belgilangan talablarga muvofiqligini ta’minlab berish;

Mazkur yo’nalishlar ekoturizm rivoji uchun yuqori darajada o’z natijasini ko’rsatadi. Shu bilan birga zamonaviy resurslarni tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni har bir ekoturizm obyektlarida qo’llash lozim.

Xulosa o’rnida shuni aytamanki, mamlakatimizda olib borilayotgan yangicha islohotlarning aksariyatini mazmuni ham aynan shunday. Ya’ni ekoturizmni rivojlantirish va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, mamlakatimizga ham iqtisodiy, ham moddiy, taraflama foyda ekanligi yaqqol namoyon bo’lmoqda. Shunga muvofiq O’zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatda turizm faoliyatini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ekoturizmni rivojlantirish O’zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasining bosh maqsadlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev – “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi” “O’zbekiston” T. 2022 y.
2. Shavkat Mirziyoyev – “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi” O’zbekiston T 2022y
3. Azamova S.A. “Ekologik globallashuv sharoitida O’zbekiston umumta’lim maktablari o’quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati” Monografiya/Qarshi/2025.
4. Axmedov A. Hamidov A. “Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish” T O’qituvchi 1994.